

TALABALARDA SAG‘LOM TAFAKKURIGA TA’SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR.

To‘xtasinova Nodira Ulugbek qizi, O‘zDJTU, XTA 2 fakulteti 3-kurs talabasi,
Ilmiy rahbar: **Ataxanova S.O.** O‘zDJTU, pedagogika va psixologiya
kafedrası dotsent v.b., PhD

Annotatsiya. Ushbu tezisdá talabalarda sag‘lom tafakkuriga ta’sir etuvchi psixologik omillar, talaba ma’naviyati jamiyat ma’naviyatining tarkibiy elementi sifatida hozirgi zamondagi murakkab jarayonlarda tarkib toptirilishi, talabalarda sog‘lom tafakkurni shakllantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: sog‘lom tafakkur, ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy va mafkuraviy hayot, bosqichma-bosqichlik prinsipi, individuallik prinsipi, tizimlilik prinsipi, kasbiy-hayotiylik prinsipi.

O‘zbekistonda sog‘lom tafakkur tamoyillarini keng aholi qatlamlari orasida targ‘ib qilish demokratik jamiyat qurilishining ustuvor g‘oyasi va davlat siyosatining bosh yo‘nalishlaridan biriga aylantirildi. Sog‘lom tafakkur g‘oyasi barkamol avlod tarbiyasining ajralmas tarkibiy qismi, sifatida milliy an‘analar va urf-odatlar, ya’ni milliy tarixiy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, millat genofondini saqlashning asosiy manbai, inson shakllanishining hayotiy ehtiyoji sifatida qadrlandi va ilgari surildi. Shu bois, jamiyat ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy va mafkuraviy hayotining barcha sohalarida sog‘lom tafakkur g‘oyalari targ‘ib va tashviq qilindi, sog‘lom tafakkur barcha sohadagi islohotlarning ustuvor vazifasi qilib belgilandi. Sog‘lom tafakkur yangi jamiyat barpo qilish jarayonining eng muhim va ardoqli orzusiga, har bir insonning hayotiy maqsadi va yaxshi yashash mezoniga aylandi.

Shuni nazarga olish zarurki, talaba ma’naviyati jamiyat ma’naviyatining tarkibiy elementi sifatida hozirgi zamondagi murakkab jarayonlarda tarkib toptirilishi taqozo etilmoqda. Talabalarda sog‘lom tafakkurni shakllantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida kun tartibiga qo‘ymoqda. Albatta bunda

talaba-yoshlarda sog‘lom tafakkurni shakllantirishning ilmiy asoslangan va aprobatsiyadan o‘tgan tizimi, yaxlit andozasi, mazmuni, shakl, metod, vositalar majmuini milliy mentalitet xususiyatlarini hisobga olgan holda tubdan qayta ishlab chiqilishini va ilmiy asoslanishini taqozo etadi.

Shunday ekan, talaba-yoshlarlarda sog‘lom tafakkurni shakllantirish aslida, *birinchidan*, yoshlar ongida sog‘lomlik g‘oyalarini, madaniyatini va axloqini tarbiyalash, ya’ni ularni har tomonlama ma’naviy-estetik tarbiyalash, *ikkinchidan*, ularni jamiyat hayotidagi muammolarga nisbatan faol pozitsiyasini ta’minlash, *uchinchidan*, ularni istiqbolda butun jamiyat salomatligini muhofaza qiluvchi ijtimoiy guruh va qatlam sifatida shakllanishi uchun asos beradi.

Demak, **sogʻlom tafakkurga talaba-yoshlarning shaxsiy barkamolligini taʼminlovchi vosita sifatida qaralsa, maqsadga muvofiq boʻladi.** Shunday ekan, **barkamol shaxs shakllanishi sogʻlom tafakkur shakllanishi bilan uzviy aloqador boʻlgan qadriyatga** aylanadi.

Bugungi kunda oliy taʼlim tizimi talabalarida, umumiy oʻrta taʼlim maktablari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar oʻquvchilarida sogʻlom tafakkur va sogʻlom turmush tarzini tarkib toptirish, talaba-yoshlarni maʼnaviy hamda badiiy-estetik jihatdan sogʻlom va yetuk qilib tarbiyalash faoliyatini tizimli tarzda olib borish, yosh avlodni sogʻlom va har jihatdan barkamol qilib oʻstirish uchun barcha zarur ijtimoiy va pedagogik shart-sharoitlar mavjud.

Talabalarda sogʻlom tafakkurni taʼminlash orqali Yangi Oʻzbekistonda barpo etilayotgan Uchinchi Renessans poydevoriga zamin hozirlash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu borada mamlakatimizda turli sohalarda boʻlgani kabi taʼlim tizimida ham katta islohotlar olib borilayapti. Keyingi yillarda hukumatimiz tomonidan yoshlarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash borasida olib borilayotgan qator tadbirlar ham buning yaqqol misoli boʻla oladi.

Mamlakatimizda umumtaʼlim maktablaridagi tashkil qilingan oʻquv-tarbiya jarayonini sogʻlomlashtirishning pedagogik asoslari, sogʻlom tafakkur bilan bogʻliq ravishda yoshlarni turli yot mafkuralar xurujlaridan asrash, ularni milliy iftixor tuygusi asosida shakllantirish, milliy zamonaviy pedagogik ilmlar tizimiga milliy qadriyatlar tizimini singdirish va yoshlarni milliy qadriyatlarni hurmatlash asosida hayotga tayyorlash, yoshlarga demokratik qadriyatlarni shakllantirish masalalari, oliy taʼlim muassasalari talabalarida milliy iftixor tuygʻusini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari, talabalarda maʼnaviy-maʼrifiy faollikni oshirish kabi masalalar oʻzbek olimlari tomonidan atroflicha tadqiq etildi.

Aslida, bizning chuqur eʼtiqodimizga koʻra, mazkur tadqiqotlarning har biri sogʻlom turmush tafakkuri tushunchasining u yoki bu qirrasini chuqur va atroflicha oʻrganishga bagʻishlangan boʻlib, sogʻlom tafakkur va sogʻlom turmush tafakkuri istilohi va tushunchalarining pedagogik ahamiyatini anglash uchun xizmat qiladi. Chunki mazkur tadqiqotlar sogʻlom tafakkur va sogʻlom turmush tafakkuri tushunchalarining zamonaviy pedagogik mazmunini atroflicha anglash uchun zarur ilmiy shart-sharoitni, yaʼni uning ilmiy bazasini yaratib beradi.

Yuqori olib borilgan ilmiy manbalarning qiyosiy-psixologik tahlili hamda tadqiqotimizning xulosaviy natijalari asosida taʼkidlash lozimki, talabalarda sohlom tafakkurni rivojlantirish uchun bir qator pedagogik-psixologik prinsiplarga amal qilish talab etilishini koʻrsatib oʻtamiz. Bular:

bosqichma-bosqichlik prinsipi (talabalarni yangi gʻoyalarni yaratish yoki biron bir ishlanmani takomillashtirishga yoʻnaltirish uchun ularga psixologik taʼsir koʻrsatadi)

individuallik prinsipi (talabaning kasbiy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida qiziqishlari va shaxsiy individual qobiliyatlari qamrovi doirasida uzatilayotgan ma'lumotlarni amaliyotga qo'llash orqali o'zlashtirishlarini inobatga olib, samaradorlikni ta'minlash. Buning uchun ham individual-psixologik xususiyatlarni inobatga olish shart sanaladi);

tizimlilik prinsipi (psixologik texnologiyalar boshqa texnologiyalar bilan hamohanglikda amal qila oladi, ular makon va vaqt qamrovida aralashib optimal natijaga erishishni ta'minlaydi. Shu sababli, innovatsion faoliyatni shakllantirish uchun qo'llaniladigan har bir tarkib (podsistema) bir-birini to'ldirib, yaxlit shakl va mazmun kasb etishi shartki, tizimlilik shunda ifodalanadi);

kasbiy-hayotiylik prinsipi (talaba tomonidan egallagan ko'nikma va malakalarni kasbiy faoliyatda qo'llash orqali, kasbiy-shaxsiy rivojlanishni ta'minlashga erishish. Shundagina, ta'lim davomida o'zlashtirilgan egallagan bilim, ko'nikma va malakani real kasbiy hayotda muvaffaqiyatli tarzda qo'llash imkoniyati yaratilib, sifat ta'minotiga erishiladiki, shunda kasbiy-hayotiylik ta'minlanadi);

nazariya va amaliyot birligi prinsipi (o'qitiladigan predmetlar doirasida yetkazilayotgan ma'lumotlarni, ishlab chiqarishda (kasbiy amaliyotda) qay darajada qo'llanilishini inobatga olib, kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish nuqtai nazari asosida ta'lim berish).

Yuqoridagi ilmiy-nazariy tahlillar asosida ta'kidlash lozimki talabalarda sog'lom tafakkurni rivojlantirish uchun, avvalo ularda sog'lom tafakkurga ta'sir qiluvchi omillarni shakllantirish talab etiladi. Sog'lom tafakkurni muhimligi esa, Yangi O'zbekistonning ta'lim siyosatida muhim rol o'ynaydi.

Shu nuqtai-nazardan kelib chiqib, talabalarning sog'lom tafakkur omillarini shakllanishini namoyon etuvchi o'rtacha-umumiy va qiyosiy-tipik ko'rsatkichlar ko'lamiga baho berish bilan birga, bu jarayon uchun xarakterli bo'lgan sog'lom tafakkurni talabalarni o'quv faoliyat samaradorligiga ta'sirini aniqlash, aniqrog'i ilmiy tahlillar asosida ularga baho berish masalasi ham tadqiqotimizning to'laqonli bo'lishini ta'minlovchi muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ayni paytda, tadqiqotimizning yakunida tanlangan tajriba va nazorat ob'ektlari misolida talabalar sog'lom tafakkur omillari ko'rsatkichlarini aniqlash va unga ilmiy izohlar berish masalasini qo'yish rejalashtirildi. Chunki, bugungi kunda talabalarda sog'lom tafakkur omillarini o'rganmay turib, uning o'quv faoliyati samaradorligiga ta'sirini yetarli darajada bashorat qilib bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Андронникова О.О. Психологическая служба в системе высшего образования: проблемы и актуальные задачи // Сетевой журнал «Вестник практической психологии образования» 2020. Том 17. № 1. – С. 85-94.

2. Артюхова Т.Ю. Психокоррекция и психотерапия: учеб. пособие / Т.Ю. Артюхова, Т.В. Шелкунова. – Красноярск: Сиб. федерал. ун-т, 2019. – 170 с.
3. Баратов Ш.Р. Из опыта внедрения концепции психологической службы в Узбекистане // Psixologiya nauchnyy jurnal. Выпуск 1 (39). 2020. – С. 9-14.
4. Каримова В. М. Соғ'лом турмуш тарзининг ижтимоий психологик асослари // XXI асрда психологик саломатлик: муаммо ва ечимлар: Республика илмий-амалий конференция материаллари (15 май 2017 йил). – Фарғ'она: 2017. – Б. 5-8.